

ISHLAB CHIQRISHDA MEHNAT MUHOFAZASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Jalgasbekova Dinara Agabek qizi

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Mehnat muhofazasi va texnika
xavfsizligi 22-55 guruh talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ishlab chiqarish jarayonlarida mehnat muhofazasini takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Unda xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishda innovatsion texnologiyalar, raqamli monitoring tizimlari, risklarni boshqarishning zamonaviy usullari hamda xodimlarning mehnat muhofazasi bo'yicha bilim va malakalarini oshirishning ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida mehnat muhofazasini tashkil etishning samarali mexanizmlari, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi. Maqola natijalari ishlab chiqarish korxonalarida mehnat muhofazasi tizimini takomillashtirish, xodimlar salomatligini himoya qilish va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Ishlab chiqarish, mehnat muhofazasi, ishlab chiqarish xavfsizligi, risklarni boshqarish, raqamli monitoring, xavfsizlik madaniyati, kasb kasalliklari.

Abstract: This article analyzes modern approaches to improving labor protection in production processes. It highlights the importance of innovative technologies, digital monitoring systems, modern risk management methods, and improving the knowledge and skills of employees in labor protection in creating safe working conditions. It also considers effective mechanisms for organizing labor protection, measures aimed at reducing industrial accidents and occupational diseases based on international experience. The results of the article will serve to improve the labor protection system in production enterprises, protect employee health, and increase labor productivity.

Keywords: Production, labor protection, industrial safety, risk management, digital monitoring, safety culture, occupational diseases.

KIRISH

Bugungi kunda ishlab chiqarish jarayonlarining jadallashuvi, texnika va texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi mehnat muhofazasi masalasini dolzarb yo'nalishlardan biriga aylantirmoqda. Ishlab chiqarish korxonalarida yuzaga keladigan texnogen xavflar, kasb kasalliklari va baxtsiz hodisalar nafaqat xodimlar salomatligiga, balki korxona samaradorligi va iqtisodiy barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu

sababli mehnat muhofazasini an'anaviy yondashuvlar asosida emas, balki zamonaviy, ilmiy va innovatsion usullar orqali takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Qaysi sohada bo'lsin inson hayoti va uning qadr-qimmatini har narsadan ustun turadi. Bu esa, avvalo, ish joylarida yaratilayotgan mehnat muhofazasi bilan bog'liq. Ayniqsa, ishlab chiqarish tarmoqlari, sanoat korxonalari va qurilish joylarida mehnat muhofazasiga rioya etish o'ta muhim hisoblanadi. Afsuski, o'tkazilgan maxsus tekshiruv natijalari hududlarda bu borada jiddiy kamchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

ILO (International Labor Organization) hisob - kitoblariga ko'ra, har yili taxminan 2,3 million erkak va ayol ish joyidagi baxtsiz hodisalar yoki ish bilan bog'liq kasalliklar natijasida vafot etadi-har kuni o'rtacha 6000 kishi. Dunyo bo'ylab har yili taxminan 340 million ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va 160 million kasb kasalliklari qurbonlari qayd etiladi. ILO ushbu ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab turadi, ularning o'zgarishi baxtsiz hodisalar sonining ko'payishi va sog'lig'ining yomonlashishini ko'rsatadi. MDH mamlakatlari uchun ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning uslubiy jihatdan hisoblangan soni 11000 tani tashkil etadi. Taqqoslash uchun, 5 850 ta holat qayd etilgan. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, shu jumladan XMT tomonidan olingan o'lim va kasbiy kasalliklar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki: Ishchilar orasida eng katta o'lim ish bilan bog'liq kasalliklardan kelib chiqadi. Yiliga 651,279 kishining o'limiga faqat zararli moddalar sabab bo'ladi. Qurilish sanoatida hisobga olingan baxtsiz hodisalarning nomutanosib yuqori darajasi qayd etilgan [2].

Shuning bilan birga mehnatni muhofazasini raqamlashtirish va unda sun'iy intellektni qo'llash unda foydalanish mavzusida ko'plab olimlar izlanishlar olib borishgan. Bu mavzudan bir nechta ilmiy ommabop maqolalar hamda ilmiy ishlar bajarilgan bo'lib, ulardan Timofeev S. S., Timofeeva S. S. larning "Sifrovoe budushee oxrani truda" maqolasi hamda ishlab chiqarish va sanoatdagi sohada qo'llanilayotgani mehnatni muhofaza qilishda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt orqali xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratilish munkunligi isbotlangan [3].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda ishlab chiqarishda mehnat muhofazasini takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlarini o'rganishda kompleks va tizimli metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida mehnat muhofazasi sohasiga oid milliy va xalqaro me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda amaliy hisobotlar tahlil qilindi. Jumladan, mehnat xavfsizligi va salomatligi bo'yicha xalqaro standartlar hamda ilg'or tajribalar qiyosiy o'rganildi.

Tadqiqotda nazariy tahlil va umumlashtirish metodlari orqali mehnat muhofazasi tizimining asosiy tamoyillari, muammolari va rivojlanish tendensiyalari aniqlab olindi. Empirik metodlar sifatida ishlab chiqarish korxonalarida mavjud mehnat muhofazasi holatini baholash, xavf-xatarlarni aniqlash va ularni guruhlash, baxtsiz hodisalar statistikasini tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, risklarni baholashda zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, jumladan, xavflarni identifikatsiyalash va ularning ehtimollik hamda oqibat darajasini aniqlashga asoslangan metodlar qo‘llanildi.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

Tahliliy metod orqali O‘zbekiston va chet eldagi mehnat muhofazasi tizimlariga oid qonun hujjatlari, statistik ma’lumotlar o‘rganildi.

So‘rovnoma usuli orqali 120 nafar sanoat korxonasi xodimlari va muhandis-texnik xodimlar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi.

Solishtirma metod orqali mahalliy va xorijiy tajribalar asosida tahliliy solishtirishlar qilindi.

Ekspert baholash orqali mehnat muhofazasi mutaxassislari bilan suhbatlar orqali tizimdagi muammolar va ularning yechimlariga baho berildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

MDH mamlakatlari uchun ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning uslubiy jihatdan hisoblangan soni 11000 tani tashkil etadi. Taqqoslash uchun, 5 850 ta holat qayd etilgan.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, shu jumladan XMT tomonidan olingan o‘lim va kasbiy kasalliklar to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki:

- Ishchilar orasida eng katta o‘lim ish bilan bog‘liq kasalliklardan kelib chiqadi. Yiliga 651,279 kishining o‘limiga faqat zararli moddalar sabab bo‘ladi.
- Qurilish sanoatida hisobga olingan baxtsiz hodisalarning nomutanosib yuqori darajasi qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha 2018-yil misolida olib qaralsa, Respublika bo‘yicha yil davomida ishlab chiqarishda 554 ta baxtsiz hodisa yuz bergan, shulardan 164 tasi o‘lim bilan tugagan, 364 tasi oqibati og‘ir va 26 tasi guruhli baxtsiz hodisalarni tashkil etgan. Ushbu baxtsiz hodisalar oqibatida 183 nafar xodim halok bo‘lgan, 428 nafari og‘ir va 47 nafari yengil tan jarohati olgan[4].

O‘zbekistonda 2020-yilda koronavirus pandemiyasiga qaramasdan ishlab chiqarish jarayonlarida baxtsiz hodisalar oshgan. Bu haqda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Davlat mehnat inspeksiyasining hisobotida keltirib o‘tilgan. Inspeksiya ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yil davomida respublikada ushbu ko‘rsatkich

607 tani (107 taga ko‘paygan) tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda ishlab chiqarish bilan bog‘liq baxtsiz hodisalar 500 ta bo‘lgan. Baxtsiz hodisalar oqibatida 693 nafar xodim jabrlangan. Shundan 201 nafar xodim halok bo‘lgan, 457 nafari og‘ir va 35 nafari yengil tan jarohati olgan[5].

Tarmoqlar kesimida sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar:

Sanoatda - 101 ta. Oqibatda 23 nafar xodim vafot etgan va 80 nafari og‘ir tan jarohati olgan; 7

Qurilishda - 82 ta. Oqibatda 31 nafar xodim vafot etgan va 51 nafari og‘ir tan jarohati olgan;

Qishloq xo‘jaligida - 18 ta. Oqibatda 12 nafar xodim vafot etgan va 15 nafari og‘ir tan jarohati olgan.

Ushbu baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirish jarayonida 4014 ta aniqlangan (1 - rasm) kamchilik yuzasidan bajarilishi majburiy bo‘lgan 566 ta yozma ko‘rsatma berilgan.

O‘ZBEKISTONDA YILLAR KESIMIDA BAXTSIZ HODISALAR TUFAYLI VAFOT ETGANLAR SONI



(1-rasm. 2018-2022-yillarda sodir bo‘lgan O‘zbekistondagi baxtsiz hodisalar ulushi.)

Qonun buzilishi holatlariga yo‘l qo‘ygani uchun 403 nafar mansabdorga nisbatan 4,149 milliard so‘m miqdorida ma‘muriy jarimalar qo‘llanilgan. 63 ta holatda inspektorlarning tegishli xulosalari asosida aybdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Respublika bo‘yicha kasb kasalligi hisobida turgan bemorlar soni 2019-yil 4716 kishini, 2020-yilda esa 4759 kishini tashkil etgan. 2020 yilda kasb kasalligi aniqlangan 43 nafar bemorning 40 nafari sanoatga to‘g‘ri kelgan[6].

Fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, ish beruvchilarga mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini qo‘llanilishi yuzasidan jami 7065 ta targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi. Shundan 1371 ta ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilgan, 4040 ta ish beruvchilar bilan joylarda seminarlar o‘tkazildi, 1683 marotaba ishonch telefon orqali tushuntirishlar berildi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan 2022-yil yanvar-mart oylarida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot berildi.

Qayd etilishicha, vazirlik hisobot davrida 5972 ta korxonalarda nazorat tadbirlari o‘tkazgan bo‘lib, unda jami 11 315 ta qonunbuzilish holatlari aniqlangan. Qonun buzilishlar yuzasidan tegishli tartibda ish beruvchilarga yozma ko‘rsatmalar va taqdimnomalar kiritilgan. 2 483 nafar mansabdor shaxsga nisbatan 4 864,6 mln. so‘m miqdorida ma’muriy jarimalar qo‘llanilgan.

Shuningdek, vazirlik mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etilmasligi natijasida baxtsiz hodisalar soni hamda kasb kasalliklari soni ortib borayotgani, jumladan, Respublika bo‘yicha joriy yilning 3 oyi davomida ishlab chiqarishda yuz bergan 132 ta baxtsiz hodisalardan 26 tasi (19 foizi) o‘lim, 97 tasi (73 foizi) oqibati og‘ir va 9 tasi (6,8 foizi) guruhii baxtsiz hodisalarni tashkil etgani haqida ma’lum qilgan[3].

Yuz bergan baxtsiz hodisalar natijasida 42 nafar xodim halok bo‘lgan, 104 nafar xodim og‘ir tan jarohati va 4 nafari yengil tan jarohati olgan.

“Ushbu baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirish jarayonida 776 ta aniqlangan kamchiliklar yuzasidan bajarilishi majburiy bo‘lgan 115 ta yozma ko‘rsatmalar berildi hamda qonunbuzilishi holatlariga yo‘l qo‘yganligi uchun 110 nafar mansabdor shaxslarga nisbatan 223 mln. so‘mlik ma’muriy jarimalar qo‘llanildi”, - deyiladi ma’lumotda.

Bundan tashqari:

- 1 259 ta ish haqini belgilangan muddatlarda to‘lab bermaslik;
- 1 027 ta ta’tillar berish tartibiga rioya etmaslik;
- 657 ta aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish;
- 654 tasi mehnat shartnoma tuzmasdan, norasmiy ravishda xodimlar mehnatidan foydalanish;
- 352 ta mehnat daftarchalarini yuritish tartibini buzish;
- 341 ta noqonuniy ishdan bo‘shatish holatlari hamda boshqa turdagi qonun buzilish holatlari aniqlangan.

Qonun buzilishlar sohalar bo‘yicha tahlil qilinganda qonun buzilishlarning eng ko‘pi xalq ta’limi tizimi (2 734 ta - 45 foiz), maktabgacha ta’lim tashkilotlari (1 437 ta

- 24 foiz), qishloq xo‘jaligi (1 051 ta - 17 foizi) hamda SSV tizimi (808 ta - 13 foizi)da kuzatilgan.

Tahliliy tekshiruvlar baxtsiz hodisalarda asosan quyidagi omillar ta'siri mavjudligini ko'rsatdi:

- ish beruvchi tomonidan mehnat muhofazasi talablari bajarilmasligi;
- xodimlarning mehnat muhofazasi qonunchiligidan yetarlicha xabardor emasligi va shunga muvofiq o'z haq-huquqlarini talab etmasligi;
- xodimlarning norasmiy ishlatilishi;
- mehnatni muhofaza qilish tadbirlariga mablag' ajratilmasligi;
- xodimlarni mehnat muhofazasi bo'yicha yo'l-yo'riqlardan o'tkazish, mehnat xavfsizligiga o'qitish va bilimlarni tekshirgan holda ishga tayinlash tashkil etilmaganligi;
- xodimlarning belgilangan me'yorlar asosida maxsus ish kiyimi, shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanmaganligi;
- ish o'rinlarining mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazilmasligi;
- ish beruvchilar tomonidan xodimlarga xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlari yaratib berilmasligi;
- ish beruvchi tomonidan xodimlarning mehnat muhofazasiga rioya qilishi bo'yicha yetarlicha nazorat o'rnatilmaganligi.

To'g'ri, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan ushbu qonunbuzarliklarga nisbatan tegishli chora-tadbirlar ko'riyapti. Xususan, joriy yilning o'tgan davridagi qonunbuzilishlarni bartaraf etish bo'yicha 6118 ta yozma ko'rsatmalar va 298 ta taqdimnomalar kiritildi, 7262 nafar mansabdor shaxsga nisbatan 4899,1 mln. so'm miqdorida ma'muriy jarimalar qo'llanildi.

Baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirish jarayonida 2512 ta aniqlangan kamchilik yuzasidan bajarilishi majburiy bo'lgan 228 ta yozma ko'rsatma berildi hamda qonunbuzilishi holatlariga yo'l qo'yganligi uchun 207 nafar mansabdor shaxsga nisbatan 395543 ming so'mlik ma'muriy jarima qo'llanildi.

Olib borilayotgan ana shunday chora-tadbirlarga qaramay, mehnat muhofazasiga rioya etmaslik ortidan kelib chiqayotgan baxtsiz hodisalar sonini keskin kamaytirish, ularning oldini olish, bartaraf qilish va fuqarolar uchun to'liq xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarishda mehnat muhofazasini ta'minlash va takomillashtirish zamonaviy sharoitda korxonaning barqaror rivojlanishi, xodimlar salomatligini muhofaza qilish hamda mehnat unumdorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. An'anaviy mehnat muhofazasi yondashuvlari bugungi kunda yuzaga kelayotgan texnogen xavflar va raqamlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlari sharoitida yetarli darajada samarali emas. Shu bois, xavflarni oldindan aniqlash va

boshqarishga asoslangan, innovatsion texnologiyalar va raqamli monitoring tizimlari bilan uyg'unlashgan zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zarur.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mehnat muhofazasi tizimini takomillashtirish ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari sonining kamayishiga, xodimlarning xavfsizlik madaniyati shakllanishiga hamda korxonalarda ijtimoiy mas'uliyatning oshishiga xizmat qiladi. Zamonaviy yondashuvlarning samaradorligi ularni kompleks tarzda, ya'ni texnik, tashkiliy va ijtimoiy-psixologik choralar uyg'unligida qo'llash bilan belgilanadi.

Takliflar quyidagicha:

➤ Ishlab chiqarish korxonalarida mehnat muhofazasi tizimini risklarni boshqarish tamoyillari asosida qayta tashkil etish va xavflarni doimiy monitoring qilish mexanizmlarini joriy etish.

➤ Ish joylarini ergonomik talablar asosida takomillashtirish, shaxsiy va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanish madaniyatini kuchaytirish.

➤ Mehnat muhofazasi sohasida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy ishlab chiqarish sharoitlariga moslashtirib joriy etish.

Mazkur takliflarni amaliyotga tatbiq etish ishlab chiqarish korxonalarida xavfsiz mehnat muhitini yaratishga, xodimlar salomatligini ishonchli himoyalashga va umumiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1]. Shakhridin Gulomovich Musayev, Munira Akmal Qizi Hamroyeva Ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisalar va mehnat muhofazasi bo'yicha samarali natijaga erishish borasidagi sayharakatlarni yanada maqsadli tashkil etish // Science and Education. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ishlab-chiqarishdagi-baxtsiz-xodisalar-va-mehnat-muhofazasi-bo-yicha-samarali-natijaga-erishish-borasidagi-sayharakatlarni-yanada>

[2]. Камбаров Х. М. и др. ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИ ҲАРАКАТЛАНУВЧИ ТАРКИБИДА ЁНГИНИ БОШЛАНҒИЧ БОСҚИЧДА ОЛДИНИ ОЛИШ //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI.– 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 177-179.

[3]. Muradov Sirojiddin Husan O'g'li MEHNATNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELKTNI QO'LLASH // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). 2024. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mehnatni-muhofaza-qilish-sohasida-raqamli-texnologiyalar-va-sun-iy-intelktni-qo-llash>

[4] Sulaymanov, S., & Talipov, M. M. (2021). Actions of the Train Compiler in Non-

Standard and Emergency Situations. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 126-130.

[5]. Sulaymanov, Sunnatulla; Talipov, Miraziz Mirkadirovich; and Dustov, Abdigofur (2020) "TO IMPROVE THE COUPON SYSTEM FOR MONITORING COMPLIANCE WITH LABOR SAFETY AT THE ENTERPRISES OF JSC

"UZBEKISTAN TEMIR YULLARI», "Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers: Vol. 16 : Iss.2 , Article 21. qonun hujjatlari to‘plami – T.: “Adolat”, 2005.

[6]. GOST 12.0.230-2007 “SSBT. Kasbiy salomatlik va xavfsizlikni boshqarish tizimlari”. Umumiy talablari.